# YASHIL XIZMATLAR SOHASINING MOHIYATI, IJTIMOYIY-IQTISODIY FUNKSIYASI VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O'RNI

Y.M. Xalikov

SamISI mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Respublikamizda ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, yashil xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish masalalari ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalish ekologik barqarorlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va aholi farovonligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Mazkur yo'nalishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Yashil xizmatlar sohasining mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalari hamda barqaror rivojlanishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil xizmatlar, ekologiya, iqtisodiyot, atrof-muhit, barqaror rivojlanish, diversifikatsiyalash, raqamlashtirish, innovatsiya, sun'iy intellekt, qashshoqlik, ochlik, sog'liq, farovonlik, sifatli ta'lim, gender tengligi, toza suv, sanitariya, toza energiya, iqtisodiy o'sish, sanoatlashtirish, infratuzilma, tengsizlik, barqaror shaharlar, ekotizim.

**Аннотация.** В Республике Узбекистан вопросы стабилизации экологической ситуации, развития сферы зелёных услуг и достижения устойчивого экономического роста являются одними из приоритетных направлений развития. Данное направление создаёт необходимые условия для обеспечения экологической устойчивости, охраны окружающей среды и повышения благосостояния населения. Глубокое исследование теоретических и практических аспектов данной сферы имеет важное научное значение. Научно обоснованы сущность сферы зелёных услуг, её социально-экономические функции и роль в устойчивом развитии.

**Ключевые слова:** зелёные услуги, экология, экономика, окружающая среда, устойчивое развитие, диверсификация, цифровизация, инновации, искусственный интеллект, бедность, голод, здоровье, благополучие, качественное образование, гендерное равенство, чистая вода, санитария, чистая энергия, экономический рост, индустриализация, инфраструктура, неравенство, устойчивые города, экосистема.

**Abstract.** Environmental stabilization, development of the green services sector, and achievement of sustainable economic growth are among the priority directions of development. This direction creates the necessary conditions for ensuring environmental sustainability, protecting the environment, and improving public well-being. A comprehensive study of its theoretical and practical aspects is of significant scientific importance. The essence of the green services sector, its socio-economic functions, and its role in sustainable development are scientifically substantiated.

**Keywords:** green services, ecology, economy, environment, sustainable development, diversification, digitalization, innovation, artificial intelligence, poverty, hunger, health, well-being, quality education, gender equality, clean water, sanitation, clean energy, economic growth, industrialization, infrastructure, inequality, sustainable cities, ecosystem.

## KIRISH

Yashil xizmatlar iqtisodiy kategoriya sifatida XX asr oxirlarida shakllangan bo'lib, iqtisodiyotning tabiiy muhitga bog'liqligini aks ettiruvchi va uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Yashil xizmatlar konsepsiyasi tabiiy va iqtisodiy resurslarni tejashga yo'naltirilgan soha bo'lib, ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, yashil siyosat, xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasi, diversifikatsiyalash, iqtisodiyotni raqamlashtirish, innovatsion iqtisodiyot, sun'iy intellekt va boshqa turli yo'nalishlarni ilmiylik tamoyili talablari asosida qamrab oladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Yashil xizmatlar” tushunchasi bir kunda yoki bir muallif tomonidan yaratilmagan. U ekologik iqtisodiyot, barqaror rivojlanish va “yashil iqtisodiyot” g'oyalari asosida shakllangan. “Yashil xizmatlar” g'oyasi asosan XX asrning 1960–1970-yillarida ekologik muammolarning kuchayishi bilan rivojlana boshladi. Ayniqsa, havo va suv ifloslanishi, sanoat chiqindilari hamda tabiiy resurslarning kamayishi kabi muammolar dunyo miqyosida muhokama qilindi. 1980–1990-yillarga kelib “barqaror rivojlanish” va “yashil iqtisodiyot” konsepsiyalari ommalashdi hamda shu asosda yashil xizmatlar sohasi ham kengaydi. Bu g'oya asosan:

– United Nations;

- United Nations Environment Programme;
- Yevropa davlatlari;
- AQSh;
- Yaponiya kabi davlatlar va xalqaro tashkilotlarning ilmiy-amaliy faoliyatida rivojlandi.

Ayniqsa, 1972-yilda o'tkazilgan *United Nations Conference on the Human Environment* ekologik siyosat tarixida muhim burilish nuqtasi bo'ldi.

Yashil xizmatlar nazariyasiga bir nechta olim va iqtisodchilar katta hissa qo'shgan. Rachel Carson ekologik harakatlar rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Uning *Silent Spring* asari ekologik ongni tarbiyalash va shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan [1]. Herman Daly ekologik iqtisodiyot nazariyasining asoschilaridan biri hisoblanadi [2]. Robert Costanza ekotizim xizmatlari va tabiatning iqtisodiy qiymati bo'yicha mashhur olimdir [3]. Gro Harlem Brundtland esa "barqaror rivojlanish" tushunchasini ommalashtirgan [4]. U rahbarlik qilgan *World Commission on Environment and Development* tomonidan 1987-yilda mashhur *Our Common Future* hisoboti e'lon qilingan.

Mazkur yo'nalish quyidagi g'oyalarga tayanadi: barqaror rivojlanish, ekologik iqtisodiyot, resurslarni tejash, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, kam chiqindili iqtisodiyot va ijtimoiy mas'uliyat. Hozirgi kunda yashil xizmatlar tarkibiga "yashil bank", ekologik logistika, chiqindilarni qayta ishlash, karbon menejmenti, ekoturizm hamda energiya samaradorligi kabi yo'nalishlar kiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy tadqiqotda ilmiy tahlil, solishtirma usul, analiz va sintez, monografik tahlil hamda statistik ma'lumotlarni o'rganish kabi metodlardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlar yashil xizmatlarni tizimlashgan soha sifatida shakllanish tarixi hamda rivojlanish bosqichlariga egaligini ko'rsatmoqda. Tabiiy va iqtisodiy resurslarning cheklanganligi, takror ishlab chiqarilmasligi bilan bog'liq muammolar insoniyatning barcha faoliyat yo'nalishlari, jumladan, iqtisodiy faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammoni ilmiy jihatdan o'rganish, aniqrog'i, Yevropa mamlakatlarida XX asrning 60–70-yillarida ommalasha boshladi. Yevropa mamlakatlarida bu davrda iqtisodiy adabiyotda an'anaviy iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan "atrof-muhit iqtisodiyoti" deb nomlangan yangi yo'nalish paydo bo'ldi. Ushbu yo'nalish doirasida iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta'siri natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni eksternali, ya'ni tashqi samaralar sifatida talqin etish boshlandi [5]. "Unga muvofiq ekologik muammolarni amaldagi iqtisodiy munosabatlar doirasida hal etish hamda xalqaro darajada umumlashtirish zarur" [6]. Bunga atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarining xalqaro savdosini tashkil etish masalasining kun tartibiga qo'yilishi yorqin misol hisoblanadi.


XX asrning 80–90-yillarida ekologik muammolarni tor doirada iqtisodiy yondashuvlar orqali hal etishning muqobil varianti sifatida ekologiya iqtisodiyoti (*ecological economics*) fani paydo bo'ldi hamda jadal sur'atlarda rivojlana boshladi. "Atrof-muhit iqtisodiyotidan farqli ushbu yo'nalish iqtisodiyot fanining maxsus bo'limi sifatida emas, balki ilmiy tadqiqotlarning mustaqil sohasi sifatida talqin etildi" [7].

Iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik hodisalarni tadqiq etishda yagona uslubiy bazani yaratish hamda ushbu masalaga fanlararo yondashish qator muammolar va ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Yuqoridagi holatlarga qaramasdan, ekologik iqtisodiyot barqaror rivojlanish tamoyillari bilan bevosita bog'liqligi tufayli jamoatchilik o'rtasida hamda siyosiy darajada jadal sur'atlarda ommalasha boshladi.

Atrof-muhit iqtisodiyoti hamda ekologiya iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari surilgan tamoyillarning iqtisodiy siyosatga joriy etilishi natijasida yashil xizmatlar kategoriyasi tushunchasi shakllana boshladi. Ushbu kategoriya ilk bor 1989-yilda Buyuk Britaniya hukumati uchun yetakchi iqtisodchilar tomonidan tayyorlangan "Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish rejasi" deb nomlangan hisobotda foydalanilgan.

Demak, xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotini tartibga solishning fiskal instrumentlari, jumladan, soliqlar, davlat byudjeti xarajatlari va davlat qarzlari (davlat qimmatli qog'ozlari hisobiga olinadigan foizli daromadlar nazarda tutiladi) orqali aholi daromadlarining shakllanishi va oshirilishini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan davlat siyosati, bir tomondan, aholining turmush farovonligini yuksaltirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, aholi daromadlari o'rtasidagi farqlanish darajasini kamaytirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Yashil xizmat ko'rsatish sohasining milliy iqtisodiyotdagi roli va funksiyasini quyidagi 1-rasm asosida tasvirlash mumkin(1-rasm).



**1-rasm. Yashil xizmat ko'rsatish sohaning milliy iqtisodiyotdagi roli va funksiyasi<sup>1</sup>**

Yashil xizmatlar sohasi xususida tadqiqotlar olib borishdan maqsad — xizmat ko'rsatish tarmoqlarida yashil xizmatlar konsepsiyasini ilmiy asoslab berish, yashil xizmatlar sohasining tadrijiy rivojlanishini tushuntirish, uning samaradorligini baholash ko'rsatkichlari hamda indikatorlarini tahlil etish, jahon amaliyotida shakllangan yashil xizmatlarni rivojlantirish modellarini qiyosiy o'rganish, O'zbekistonda yashil xizmatlarni rivojlantirish asosida amaliy natijalarga erishishdan iborat.

Aniqlangan maqsaddan kelib chiqib, uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat degan xulosaga kelindi:

- xizmatlar iqtisodiyoti doirasida yashil xizmatlarga oid kategoriyalar hamda tushunchalar mohiyatini ochib berish;
- barqaror rivojlanishni ta'minlashda yashil xizmatlarning tutgan o'rnini baholash;
- yashil xizmatlar sohasi konsepsiyasining maqsadi, tamoyillari hamda amalga oshirish mexanizmini tahlil etish;
- yashil xizmatlar hamda yashil o'sish miqyosini baholashning xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilayotgan yondashuvlarini qiyosiy tahlil etish;
- yashil xizmatlarning o'sish jarayonini moliyalashtirish holati, ko'rsatkichlari hamda rivojlanish istiqbollarini o'rganish;
- "yashil energetika"ga barqaror rivojlanish omili sifatida baho berish;
- organik qishloq xo'jaligida agroxizmatlarni rivojlantirish muammolarini o'rganish;
- jahondagi ekologik vaziyatga baho berish hamda ekologik siyosatni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmini asoslash;
- jahonning yetakchi mamlakatlarida yashil xizmatlarni rivojlantirish, milliy dasturlarni amalga oshirish borasidagi jamlangan boy va ilg'or tajribani qiyosiy tahlil qilish;
- O'zbekistonda yashil xizmatlarga o'tish strategiyasining maqsadi, vazifalari hamda rivojlanish istiqbollarini o'rganish.

Yashil xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy rivojlanish darajalari bo'yicha omillari tasnifi 1-jadvalda keltirilgan bo'lib, ular bir vaqtning o'zida ushbu sohani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vositalari sifatida ham shakllanadi(1-jadval).

1 Muallif ishlanmasi

## 1-jadval

 Yashil xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy rivojlanish darajaviy omillari<sup>2</sup>

Darajalari	Rivojlanishning iqtisodiy omillari
<b>Makrodarajada</b>	Yashil xizmat ko'rsatish tarmoqlari korxonalariga soliq imtiyozlari berish, ularni kreditlash tizimini soddalashtirish, sohada davlat investitsiyalari jozibadorligi va samaradorligini oshirish, xizmatlar eksportini moliyaviy rag'batlantirish, sohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, raqamli xizmatlar ko'rsatish hajmini oshirish, makrodarajada investitsion-innovatsion siyosatni amalga oshirish, sohani rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va realizatsiya qilish.
<b>Mezodarajada</b>	Hududiy darajada yashil xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha investitsion siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, sohani rivojlantirishning hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, hududlarda sohani rivojlantirish bo'yicha innovatsion-investitsion jozibadorlikni oshirish.
<b>Mikrodarajada</b>	Korxonalarda mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot rentabelligi hamda asosiy va aylanma fondlar samaradorligini oshirish, yashil xizmat ko'rsatishning intensiv omillarini tadqiq qilish, xizmatlarning xarajatlar bo'yicha nisbiy darajasini kamaytirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, mehnat sig'imini pasaytirish, innovatsiyalarni joriy qilish orqali korxonalar (firma) faoliyatini rivojlantirish.

Atrof-muhit iqtisodiyoti yoki ekologik iqtisodiyotdan farqli o'laroq, yashil xizmatlar ko'proq amaliy yo'nalishga ega bo'lgan konsepsiya sifatida namoyon bo'ladi. Bu kategoriya ilmiy-nazariy yo'nalishdan ko'ra, asosan real iqtisodiy siyosat hamda amaliy faoliyat sohalari — masalan, energetika, innovatsiyalar, qishloq xo'jaligi kabi tarmoqlarda xizmat ko'rsatish bilan bevosita bog'liqdir. Bu farqni yashil xizmatlar kategoriyasining ingliz tilidagi ifodasida ham yaqqol ko'rish mumkin: u iqtisodiy nazariya (*economics*) yoki ekologik iqtisodiyot (*environmental economics, ecological economics*) tushunchalaridan farqli ravishda, bevosita xizmat ko'rsatish, ya'ni real iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq jarayonlarni anglatadi.

Monitoringlar kuzatuvini yashil xizmatlar kategoriyasi nazariy jihatdan xo'jalik yuritish tizimini ekologik tamoyillar asosida "yashillashtirish" bo'yicha umumiy strategiyani ishlab chiqish hamda ustuvor yo'nalishlarni aniqlash bilan shug'ullanishi haqidagi xulosani beradi.

Ushbu yo'nalish nazariy jihatdan asoslab berilgach, uning amaliy ahamiyatini xizmat ko'rsatish faoliyatiga daxldor iqtisodiy subyektlar o'rtasida keng targ'ib qilish zarurati yuzaga keladi. Bu bosqichda yashil xizmatlarning asosiy vazifasi jamiyatda ekologik toza xizmat ko'rsatish jarayonlarining dolzarbligini anglash hamda bu borada iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

O'zbekistonda 2021–2025-yillar davomida xizmat ko'rsatish sohasining o'sish hajmida ijobiy tendensiyalar kuzatilgan. 2024-yilga nisbatan 2025-yilda o'sish hajmi 28,3 foizni tashkil etgan (2-jadval).

## 2-jadval

 O'zbekistonda 2021–2025-yillar davomida xizmat ko'rsatish sohasining o'sish hajmi, mlrd so'm hisobida<sup>3</sup>

№	Viloyatlar	Yillar					2025-yilda-2024-yilga nisbatan o'zgarish foizda
		2021	2022	2023	2024	2025	
1	O'zbekiston Respublikasi	284388,1	366891,0	649806,4	818428,3	1 050292,5	128,3
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	8458,4	10595,3	23040,1	28820,7	35196,2	122,2
3	Andijon viloyati	14459,6	17804	33643,1	41807,5	53969,6	129,0
4	Buxoro viloyati	12574,1	15848,8	28157,8	34495,1	42659,2	123,6
5	Jizzax viloyati	6395,7	8127,3	15970,8	20069,5	24612,9	122,6

<sup>2</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



6	Qashqadaryo viloyati	12907,4	15967,7	34956,0	43255,9	54118,1	125,1
7	Navoiy viloyati	7459,6	9322,8	16247,2	20055,6	25733,6	128,3
8	Namangan viloyati	11619,5	14693,4	34468,0	43090,6	56282,9	130,6
9	Samarqand viloyati	18259	22953,6	46593,0	58875,7	78163,1	132,7
10	Surxondaryo viloyati	10387,4	12838,4	23159,1	28505,9	35561,3	124,7
11	Sirdaryo viloyati	4183,1	5018,8	9368,8	11609,1	14611,4	125,8
12	Toshkent viloyati	21197,4	25919,7	45199,2	56317,9	71783,7	127,4
13	Farg'ona viloyati	17705,2	22131,8	44130,6	55200,7	71765,9	130,0
14	Xorazm viloyati	8348,1	10480,4	22601,2	28262,0	36911,6	130,6
15	Toshkent shahri	164364,9	195564,1	230819,9	298825,6	397414,2	132,9

Bizning nazaramizda, muallif tomonidan keltirilgan ushbu fikrlar xizmat ko'rsatish sohasining milliy iqtisodiyotdagi va jamiyat hayotidagi rolini ochib berish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yetarli emas. Chunki xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotda tarmoqlararo raqobatni kuchaytirishda ishtirok etsa-da, uning iqtisodiyotda tutgan o'rnini baholashda aynan shu omilni asos qilib olish mantiqiy jihatdan yetarli emas. Xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning yetakchi, birlamchi sektoriga aylanib borayotgan bugungi kunda uning roli faqat xo'jalik subyektlari o'rtasidagi raqobatni kuchaytirishda yoki davlatning moliyalashtirish jarayonini qisqartirishda namoyon bo'lib qolmaydi. Xizmat ko'rsatish sohasi, birinchi navbatda, aholi ehtiyojlarini qondirish, uning yashashi va kamol topishining asosiy vositasi, ikkinchidan, mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning shakllanishida yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan birlamchi sektor, uchinchi esa aholi bandligini ta'minlash muammosini hal etishda muhim mavqega ega bo'lgan tuzilma hisoblanadi(3-jadval).

### 3-jadval

O'zbekistonda yashil xizmatlarni rivojlantirish maqsadida "Yashil makon" dasturi doirasida 2021–2025-yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar<sup>4</sup>

T/r	Yillar	Obodonlashtirish xizmatlari maqsadida ekilgan ko'chatlar soni (mln dona)	Yashil xizmatlarning rivojlanishiga izoh
1	2021	86	"Yashil makon" dasturining shakllanishi
2	2022	203	Hududlarda yashil xizmatlar hajmining kengayib borishi
3	2023	220	Yashil hududlar rivojlana boshladi
4	2024	227	Obodonlashtirish xizmatlari bilan yashil xizmatlar uyg'unlashdi
5	2025	200	Yashil xizmatlar bozori shakllandi

3-jadval ma'lumotlarining tahlili besh yil ichida respublika hududlari bo'yicha qariyb 1 mlrd dona daraxt ko'chatlari ekilganligini ko'rsatadi. Har yili salkam 200 mln dona ko'chat ekilgan. Shaharlarda yashil hududlar ulushini 30 foizga yetkazish maqsadida 2030-yilgacha belgilangan vazifalar uzluksiz va tizimli asosda amalga oshirilmoqda. Orolbo'yi hududida millionlab gektar maydonda "yashil zonalar" kengaytirildi.

Yashil xizmatlar nazariy va g'oyaviy asoslar bilan mustahkamlangach, navbatdagi bosqichda ushbu yo'nalishga oid huquqiy bazani shakllantirish hamda soha doirasida tegishli institutsional tamoyillar va qonunchilik asoslarini ishlab chiqish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bunday normativ-huquqiy hujjatlar xizmat ko'rsatish iqtisodiy faoliyatini "yashillashtirish"ga xizmat qilishi bilan birga, xizmatlar iqtisodiyotidagi barcha xo'jalik

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

subyektlarining manfaatlariga ham mos kelishi lozim.

Xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti nuqtai nazaridan esa yashil xizmatlarni boshqarish, marketing va servis mexanizmlarining samaradorligi hamda natijalariga baho berish orqali uning amaliy ta'siri aniqlanadi. Yashil xizmatlarning kategoriya sifatidagi tadqiqot obyektlarini quyidagilarga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- xizmatlar iqtisodiyotida xo'jalik yuritish hamda atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash;
- xizmat ko'rsatish natijasida iqtisodiy faoliyat tufayli uzoq istiqbolda atrof-muhitga yetkaziladigan zararni minimallashtirish, ekologik hamda ijtimoiy omillarni qamrab oluvchi xizmatlar iqtisodiy tizimini boshqarish usullarini o'rganish;
- xizmat ko'rsatish sohasida xo'jalik yuritish faoliyatining yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni atrof-muhitga yetkaziladigan zararni minimallashtirishga yo'naltirish tamoyillarini tadqiq etish;
- xizmat ko'rsatish sohasida alternativ yashil energiyadan foydalanish va uning samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash.

Yashil xizmatlar kategoriyasining akkumulyatsiyalashgan obyektlaridan kelib chiqib xulosa qilish mumkin, ushbu kategoriya uchun fanlararo uslubiyat xos bo'lib, unda iqtisodiyot fani boshqa fanlar bilan o'zaro kesishadi.

Yashil xizmatlar kategoriyasini fan sifatida ilmiy bilish usullarini tanlash hamda tadqiqot strategiyasini tuzishda quyidagi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- resurslarning cheklanganligi sharoitida ekologik omillarning birlamchi omil ekanligi;
- yashil xizmatlarni amaliyotga tatbiq etish bosqichlarini turli (nazariy, g'oyaviy, siyosiy hamda iqtisodiy) darajalarga bo'lish zaruriyatining mavjudligi;
- tahlillar hamda ilmiy ishlanmalarning fanlararo xarakterga egaligi;
- yashil xizmatlarning rivojlanish tendensiyalarini aprior yondashuv asosida hal etish mumkinligi(4-jadval).

#### 4-jadval

#### O'zbekistonda yashil xizmatlarni 2021–2025-yillarda rivojlantirish bo'yicha byudjet xarajatlari holati<sup>5</sup>

T/r	Yillar	Xarajatlar (mlrd so'm)	Yashil xizmatlarning rivojlanishiga izoh
1	2021	3,5	“Yashil makon” dasturining shakllanishi
2	2022	4,3	Hududlarda yashil xizmatlar hajmining kengayib borishi
3	2023	9,2	Yashil hududlar rivojlana boshladi
4	2024	12,6	Obodonlashtirish xizmatlari bilan yashil xizmatlar uyg'unlashdi
5	2025	14,7	Yashil xizmatlar bozori shakllandi

4-jadval ma'lumotlari 2021–2025-yillarda yashil xizmatlar sohasini rivojlantirish maqsadida ajratilgan xarajatlar hajmi qariyb 5 barobarga oshganligini ko'rsatadi. Eng yuqori o'sish sur'atlari 2023–2025-yillarda kuzatilgan. Ushbu xarajatlar hududlarda daraxt va ko'chatlar ekish, sug'orish tizimlarini ta'mirlash, shaharlarni yashillashirish hamda ekologik infratuzilmani takomillashtirish maqsadlariga yo'naltirilgan.

Jamiyatda asta-sekinlik bilan tabiiy resurslardan rekreatsion va ilmiy-tadqiqot maqsadlarida foydalanish zarurati to'g'risidagi qarashlar shakllana boshladi. Bu esa kelajak avlodlar oldidagi ekologik mas'uliyatga asoslangan ilmiy konsepsiyalarning vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Mazkur g'oyalarning amaliyotga tatbiq etilishi barqaror rivojlanish tamoyillarini hayotga joriy etish orqali amalga oshirilishi lozim.

Barqaror rivojlanish deganda hozirgi avlod ehtiyojlarini to'liq qondirish bilan birga, kelajak avlodlarning ham ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini xavf ostiga qo'ymaslikka asoslangan rivojlanish modeli tushuniladi. Ushbu konsepsiya iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik omillarning o'zaro uyg'unlikda taraqqiy etishini talab etadi.

Boshqacha aytganda, barqaror rivojlanishni energetik samaradorlik orqali taraqqiy etuvchi, “ijtimoiy-iqtisodiy-ekologik” uchlik asosida shakllanuvchi jarayon sifatida tasavvur qilish mumkin.

Ushbu rivojlanish modelida iqtisodiy yondashuv cheklangan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zaruratini ilgari suradi. Ijtimoiy yondashuv esa global miqyosda ijtimoiy barqarorlik hamda madaniy xilma-xillikni saqlashni ko'zda tutadi. Ekologik yondashuv esa har qanday tabiiy-ekologik tizimlarning uzluksiz va barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga nisbatan iqtisodiy yondashuvga E.R. Lindal hamda J.R. Xikslar asos solgan. Xiks–Lindal yalpi daromadlarning maksimal oqimi nazariyasiga muvofiq daromad yalpi kapitalni saqlab qolgan holda yaratilishi zarur. Bunda cheklangan resurslar hamda ekologik (tabiiy resurslar, energiya hamda materiallarni tejovchi) texnologiyalardan oqilona foydalanish, ekologik mahsulotlar yaratish va chiqindilarni boshqarish nazarda tutiladi. Ushbu masalani hal etishdagi bosh muammo qaysi kapital (jismoniy, tabiiy yoki inson kapitali) saqlanib

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



qolishi hamda turli xil kapital turlari qanchalik o'zaro o'rin almashinishi va ushbu aktivlar (ekologik resurslar) qiymatini baholash muammosi hisoblanadi. Natijada iqtisodiy barqarorlikning quyidagi ikki turi paydo bo'ldi:

- kuchsiz — vaqt bo'yicha kamaymaydigan tabiiy hamda jamg'arilgan kapitalga asoslangan iqtisodiy barqarorlik;
- kuchli — tabiiy kapitalning kamaymasligiga (qayta tiklanmaydigan resurslarni sotishdan tushgan foydaning bir qismi tiklanadigan tabiiy kapital qiymatini oshirishga yo'naltirilishi zarurligiga) asoslangan iqtisodiy barqarorlik.

Barqaror rivojlanishning ijtimoiy tarkibi, avvalo, inson manfaatlariga yo'naltirilgan bo'lib, u ijtimoiy va madaniy tizimlarning izchil barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Ijtimoiy barqarorlikning muhim mezonlaridan biri jamiyatda mavjud bo'yluk hamda ne'matlarni adolatli taqsimlash zaruratidir.

Inson taraqqiyoti konsepsiyasiga ko'ra, inson faqat rivojlanishning obyekti emas, balki uning faol subyekti sifatida e'tirof etiladi. Mazkur yondashuv barqaror rivojlanish g'oyalarida markaziy o'rin egallab, insonning hayotiy faoliyatini mustaqil shakllantirishi, qarorlar qabul qilishi, ularni amalga oshirishi hamda bajarilish jarayonini bevosita nazorat qilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Shu ma'noda, barqaror rivojlanish konsepsiyasi inson salohiyatini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish va har bir shaxsning qaror qabul qilish jarayonlarida to'laqonli qatnashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ekologik nuqta nazardan barqaror rivojlanish tabiiy jismoniy hamda biologik tizimlarning yaxlitligini saqlab qolishni talab etadi. Bu jarayonda global biosferaning barqarorligini ta'minlab beruvchi ekotizimlar alohida ahamiyat kasb etadi. Tabiiy resurslarning degradatsiyalanishi, atrof-muhitning ifloslanishi hamda biologik xilma-xillikning kamayib borishi natijasida ekologik tizimlarning o'zini tiklash salohiyati sezilarli darajada pasayadi.

Barqaror rivojlanishga erishishda iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik komponentlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlash murakkab masala hisoblanadi. Bu jarayonda ushbu uch konsepsiya o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarining mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Xususan, iqtisodiy hamda ijtimoiy komponentlar orqali jamiyatda avlodlar davomida adolatga erishish, daromadlarni adolatli taqsimlash hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga manzilli yordam ko'rsatish kabi dolzarb vazifalar ilgari surilmoqda. Iqtisodiy hamda ekologik yo'nalishlarning uyg'unlashuvi esa korxonalar faoliyatining atrof-muhitga ko'rsatgan ta'sirini iqtisodiy hisobotlarda aks ettirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, ijtimoiy hamda ekologik komponentlar hozirgi va kelajak avlodlar o'rtasida tenglikni ta'minlash, kelajak avlod manfaatlarini e'tiborga olish hamda aholining qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirokini ta'minlash kabi muhim masalalarning dolzarbligini oshirmoqda.

Barqaror rivojlanishni ta'minlash borasidagi xalqaro amaliy faoliyat BMT tashabbusi bilan ilgari surilgan. 2000-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Ming-yillik rivojlanish maqsadlari qabul qilindi hamda 2015-yil qo'yilgan maqsadlarga erishishni baholash yili sifatida belgilandi. 2012-yilda BMTda Ming-yillik rivojlanish maqsadlari doirasida amalga oshirilishi yakunlanmay qolgan vazifalarga erishish uchun jahon hamjamiyatining 2015-yildan keyingi rivojlanish maqsadlarini belgilab olishi zarurligi ta'kidlandi. Shu tariqa, BMTning 2012-yilda barqaror rivojlanish mavzusida o'tkazilgan "Rio+20" konferensiyasida dunyo mamlakatlari rahbarlari Barqaror rivojlanish maqsadlarini (*Sustainable Development Goals — SDGs*) ishlab chiqishga kelishib oldilar.

Barqaror rivojlanish maqsadlari har bir inson uchun farovon turmush tarzini yaratishga xizmat qiluvchi iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqsadlar BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan 2015–2030-yillarda amalga oshirilishi kun tartibiga kiritilgan. Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi 17 ta global maqsad hamda ular bilan bog'liq 169 ta vazifani o'z tarkibiga oladi: 1) qashshoqlikni yo'qotish; 2) ochlikni tugatish; 3) sog'liq va farovonlik; 4) sifatli ta'lim; 5) gender tengligi; 6) toza suv va sanitariya; 7) arzon va toza energiya; 8) munosib ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy o'sish; 9) sanoatlashtirish, innovatsiyalar va infratuzilma; 10) tengsizlikni kamaytirish; 11) barqaror shaharlar va qulay yashash joylarini yaratish; 12) mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish; 13) iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish; 14) dengiz ekotizimlarini asrash; 15) quruqlikdagi ekotizimlarni asrash; 16) tinchlik, adolat va samarali boshqaruv; 17) barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik.

O'zbekiston ushbu maqsadlardan 16 tasini milliyashtirish hamda amalga oshirish vazifasini o'z oldiga qo'ygan. Respublika hududida dengiz havzalari mavjud bo'lmagani bois, 14-maqsad (dengiz ekotizimlarini asrash) O'zbekiston tomonidan milliyashtirilmagan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil xizmatlar — bu atrof-muhitga zararni kamaytirish, tabiatni asrash hamda resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan xizmat turlaridir. Ya'ni, oddiy xizmatlardan farqli ravishda, ularning maqsadi iqtisodiy foyda bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni ham ta'minlashdan iborat.

Tahlillar besh yil ichida respublika hududlari bo'yicha qariyb 1 mlrd dona daraxt ko'chatlari ekilganligini



ko'rsatadi. Har yili salkam 200 mln dona ko'chat ekish ishlari amalga oshirilgan. Shaharlarda yashil hududlar ulushini 30 foizga yetkazish maqsadida 2030-yilgacha belgilangan vazifalar uzluksiz va tizimli asosda amalga oshirilmoqda. Orolbo'yi hududida millionlab gektar maydonda "yashil zonalar" kengaytirib borilmoqda.

2021–2025-yillarda yashil xizmatlar sohasini rivojlantirish maqsadida ajratilgan mablag'lar hududlarda daraxt va ko'chatlar ekish, sug'orish tizimlarini ta'mirlash, shaharlarni yashillashtirish hamda ekologik infratuzilmani takomillashtirish maqsadlariga yo'naltirilgan.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar. O'zbekistonda yashil xizmatlarni rivojlantirish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Biroq kelgusida ushbu sohani rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelishi mumkin. Quyida asosiy muammolar va ularning qisqacha tavsifi keltirilgan:

Moliyaviy mablag' yetishmasligi — yashil texnologiyalar va ekologik xizmatlarni joriy etish katta hajmdagi investitsiyalarni talab qiladi. Ko'plab korxonalarda zamonaviy "yashil" uskunalarni xarid qilish uchun mablag'lar yetarli emas.

Malakali kadrlar tanqisligi — yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya manbalari hamda chiqindilarni qayta ishlash kabi yo'nalishlar uchun yuqori malakali mutaxassislar talab etiladi. Hozirgi vaqtda ushbu sohada tajribali kadrlar soni cheklangan.

Aholining ekologik madaniyati yetarli darajada shakllanmaganligi — aholining bir qismi ekologik xizmatlarning ahamiyatini to'liq anglab yetmagan. Xususan, energiyani tejash, chiqindilarni saralash yoki ekologik mahsulotlardan foydalanish madaniyati hali keng ommalashmagan.

Infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi — yashil transport, quyosh va shamol energetikasi hamda chiqindilarni qayta ishlash zavodlari kabi infratuzilma obyektlari barcha hududlarda bir xil rivojlanmagan. Bu esa xizmatlarni keng joriy etishga to'sqinlik qilmoqda.

Qonunchilik va nazorat bilan bog'liq muammolar — ekologik standartlar va yashil xizmatlarga oid qonunchilik hujjatlari qabul qilingan bo'lsa-da, ularni amaliyotda to'liq bajarish va nazorat qilishda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda.

Texnologik qaramlik — ko'plab yashil texnologiyalar xorijdan import qilinadi. Bu esa xarajatlarning oshishiga va tashqi bozorlarga bog'liqlikning kuchayishiga olib keladi.

Iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi — O'zbekistonda suv resurslarining kamayishi hamda iqlim o'zgarishi qishloq xo'jaligi va ekologik xizmatlar rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekistonda yashil xizmatlarni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Biroq moliyalashtirish, texnologiyalar, malakali kadrlar va infratuzilma bilan bog'liq masalalarni hal etish istiqbolda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu orqali mamlakatda barqaror iqtisodiy rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash mumkin, degan fikrdamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://www.rachelcarson.org/silent-spring>
2. <https://esg-library.mgimo.ru/publications/ecological-economics-and-sustainable-development>
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
4. <https://www.goodreads.com/book/show/245531975-we-have-only-one-earth>
5. [https://lib.utu-ranch.uz/media/files/2024/09/13/Yashil\\_iqtisodiyot\\_2022.pdf](https://lib.utu-ranch.uz/media/files/2024/09/13/Yashil_iqtisodiyot_2022.pdf)
6. [https://lib.utu-ranch.uz/media/files/2024/09/13/Yashil\\_iqtisodiyot\\_2022.pdf](https://lib.utu-ranch.uz/media/files/2024/09/13/Yashil_iqtisodiyot_2022.pdf)
7. *Blueprint for a Green Economy* / David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. – London: Earthscan, Great Britain, 1989. – 192 p.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)